



MUAMMOLI TEXNOLOGIYALARNING NEMIS OLIMLARI TOMONIDAN ASOSLANGAN O‘QITISH USULI

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Nishanova Viloyat Narjigitovna

tel: +998906014890

[*viloyatnishonova@gmail.com*](mailto:viloyatnishonova@gmail.com)

Annotatsiya Ushbu tezisdagi muammoli texnologiyalar asosida o‘qitishning nazariy asoslari hamda uning chet tilini o‘qitish jarayonidagi metodik ahamiyati nemis didaktikasi vakillari qarashlari asosida tahlil qilinadi. Muammoli texnologiyalar ta‘lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod sifatida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: muammoli texnologiya, problemorientierter Unterricht, kommunikativ kompetensiya, nemis didaktikasi, gapirish ko‘nikmasi.

Abstract This thesis analyzes the theoretical foundations of problem-based learning and its methodological importance in foreign language teaching based on the ideas of German didactics scholars. Problem-based learning is considered an effective pedagogical approach that promotes students’ independent thinking, analytical skills and communicative competence in the learning process.

Keywords: problem-based learning, problem-oriented teaching, communicative competence, German didactics, speaking skills.

Muammoli o‘qish (nem. problemorientiertes Lesen) va muammoli o‘qitish (problemorientierter Unterricht) konsepsiyasi XX asr boshlarida pedagogik nazariyada shakllangan bo‘lsa-da, Germaniya pedagogika tizimida 1960–1970-yillardan boshlab faol ilmiy tadqiqot ob‘ekti sifatida rivojlana boshladi. Nemis didaktikasida bu yondashuv ta‘lim jarayonini shunchaki bilim uzatish shakli sifatida emas, balki talabalar tafakkurini faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashni



rivojlantiruvchi va kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi interaktiv faoliyat sifatida talqin etiladi.

Hans Aebli o'zining ilmiy tadqiqotlarida bilimni tayyor shaklda berish samarali natija bermasligini, aksincha bilim talabalar tomonidan muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida egallangandagina barqaror shakllanishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, o'quv jarayonida savollar berish, muammoli vaziyatlar yaratish hamda talabalarni mustaqil izlanishga yo'naltirish muhim metodik ahamiyatga ega.[1:120]

Wolfgang Klafki tomonidan ishlab chiqilgan kategorial didaktika nazariyasiga ko'ra, ta'lim mazmuni o'quvchi uchun dolzarb, hayotiy va muammoli ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Uning fikricha, o'quv matnlari faqat informatsiya manbai emas, balki talabalarni tahlil qilish, baholash va fikr yuritishga undaydigan intellektual muhit yaratishi kerak.

Horst Siebert muammoli yondashuvning kattalar ta'limi va til o'rganish jarayonidagi ahamiyatini ta'kidlab, muammoli texnologiyalar orqali o'qitish talabalarning mavjud bilimlarini yangi bilimlar bilan integratsiya qilish, tahliliy tafakkurni rivojlantirish hamda kommunikativ faoliyatni kuchaytirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.[3:79]

Zamonaviy nemis pedagogikasida Ludger Brüning va Tobias Saum muammoli o'qitish jarayonining metodik bosqichlarini ishlab chiqqan olimlar hisoblanadi. Ular muammoli texnologiyalar orqali o'qitishni quyidagi bosqichlar asosida tashkil etishni tavsiya etadilar. Bu tavsiyalarni quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.



muammoni
aniqlash,
taxmin
ilgari surish

dalillar
izlash,
yechim
ishlab
chiqish

natijani
taqdim
etish va
baholash

[4:76]

Shunday ekan bizning tadqiqot ishimizda ham, aynan muammoli texnologiyalar orqali o'qitish jarayonida talabalar matn bilan faol ishlaydi, undagi asosiy g'oyalarni aniqlaydi, muammoni tahlil qiladi va o'z fikrlarini og'zaki hamda yozma shaklda ifoda etadi. Natijada talabalarlar passiv bilim oluvchilardan faol bilim yaratuvchilarga aylanishadi, bundan tashqari spontan nutqi rivojlanib kommunikativ kompetensiyasi takomillashadi.

Xulosa qilib aytganda, muammoli texnologiyalar asosida o'qitish chet tilini o'qitishda samarali metodlardan hisoblanib, u talabalarning mustaqil fikrlashini, tanqidiy tahlilini hamda og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aebli H. Denken: Das Ordnen des Tuns. Stuttgart: Klett-Cotta, 1980.
2. Klafki W. Neue Studien zur Bildungstheorie und Didaktik. Weinheim: Beltz Verlag, 1996.
3. Siebert H. Didaktisches Handeln in der Erwachsenenbildung. Neuwied: Luchterhand Verlag, 2006.
4. Brüning L., Saum T. Erfolgreich unterrichten: Methoden und Strategien für problemorientierten Unterricht. Mülheim an der Ruhr: Verlag an der Ruhr, 2009.



5. Baumert J. et al. PISA 2000: Basiskompetenzen von Schülerinnen und Schülern im internationalen Vergleich. Opladen: Leske + Budrich, 2001.
6. Dewey J. How We Think. New York: D.C. Heath & Company, 1910.